

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11176651>

BUGUNGI KUNDA BOLALARNI TARBIYALASHDA SHARQ ALLOMALARI QARASHLARINING AHAMIYATI

Ibragimova Nasiba Abdurasulovna

Termiz davlat universiteti rus va jahon adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada shaxsning taraqqiyoti, komil insonni axloqiy jihatdan yetuk qilib tarbiya qilishda sharq faylasuflarining o'rni haqida keng to'xtalib o'tiladi. O'rta asr sharq mutafakkirlari qarashlarida yoshlar axloqiy tarbiyasi masalalarining yoritilishiga keng e'tibor qaratilgan. Sharqona tarbiyaning falsafiy mazmuni ochib berilgan. Tarbiya borasidagi sharq mutafakkirlarining fikrlari keltirilgan.

***Kalit so'zlar:** komillik, tarbiya, kelajak yoshlar, insonparvarlik, axloq, xulq, sharq mutafakkirlari, do'stlik, komil inson, barkamol avlod.*

Bugungi kunda tarbiyaning asosiy maqsadi yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol insonlar etib shakllantirishdir. Barkamol inson o'zida ma'naviy va jismoniy yetuklikni mujassam etadi. Yoshlarimizni tarbiyalash uchun birinchi galda sharq mutafakkirlarining meroslari dasturi amal bo'lib xizmat qiladi.

Buni Prezidentimiz „Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala –bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti, bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim- yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talabi bilan uyg'un bo'lsin, lekin, ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib o'zligiga sodiq qolishiga undab tursin. Bunga nima hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va

faqat tarbiya hisobidan’’- deya uqtiradi. Prezidentimiz aytadiki: „Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor va men ishonaman, nasib etsa havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san’atimiz ham albatta bo’ladi.’’O’tmish ajdodlarimizning, xususan, Alisher Navoiy hazratlarining bizga qoldirilgan boy adabiy va ma’naviy merosi odamlarning, ayniqsa, o’sib kelayotgan yosh avlodning ma’nan va ruhan barkamol bo’lib tarbiya topishlarida muhim o’rin tutadi. Buyuk mutafakkir g’azal mulkingning sultoni hazrat Alisher Navoiy o’zining asarlarida, dostonlarida umuminsoniy ruh bilan sug’oriladigan komil inson, odil hukmdor haqidagi g’oyalarni ilgari surdi. Alisher Navoiyning betakror va boy ijodini adabiyotshunos olimlar o’rganib, talqin qilib kelishar ekan, mutafakkir ijodining asosiy qismi inson kamoloti, komillik sari intilishi tarannum etadi. Uning insonparvarlik, ta’lim-tarbiya, axloq va xulq-odob qoidalari, ilm-fan va kasb-hunarni egallash yuksak insoniy qadriyatlar to’g’risidagi dono fikrlari hozir ham o’zining ahamiyatini yo’qotgani yo’q.

Abu Nasr Forobiyning ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari Sharqning buyuk qomusiy olimi „Mualimi soniy’’(ikkinchi muallim) Abu Nasr Forobiy (873-950) ta’lim-tarbiyaga bag’ishlangan „Fozil odamlar shahri’’, „ Ilmlarning kelib chiqishi’’asarlarida barkamol shaxsni tarbiyalashda nimalarga e’tibor berish zarurligi, ta’lim bilan tarbiya birligi haqida qimmatli fikrlar bildiradi.Forobiy „Baxt-saodatga erishuv to’g’risida’’ nomli risolasida ta’lim-tarbiya birligi haqida fikr yuritir ekan, unda ta’lim berish oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga borishi lozimligi ko’rsatadi.Forobiy insonning ma’naviy olamida, uning ikki tomoniga: aql va axloqni tarbiyalashga asosiy e’tiborni qaratadi.Ta’lim va tarbiya Forobiy fikricha, insonni aqlan va axloqan komil shaxs qilib shakllantirishga qaratilmog’i kerak. Xuddi shuning uchun ham, ta’lim-tarbiyaning asosiy vazifasi insonlar haqida mustaqil fikrlash madaniyatiga ega bo’lgan barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdir. Sharq pedagogikasida Forobiy ta’lim va tarbiyaga birinchi marta ta’rif bergan allomadir:„Ta’lim degan so’z insonga o’qitish, tushuntirish asosida, nazariy bilim berish, tarbiya berish degani esa insoniy fazilatlarni, ma’lum hunarni yoki kasbni

egallash uchun zarur bo'lgan xulq-atvor normalariga o'rgatishdir. Maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamolga yetkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun-qoidalariga to'g'ri anglab oladi, umr kechirish jarayonida to'g'ri yo'l tutadi, boshqalar bilan halol, adolatli munosabatda bo'ladi.

Jamiyatda o'rnatilgan oqilona tartib va qoidalarga rioya etadi. Forobiy ta'lim va tarbiya ishini boshlashdan avval tarbiyalanuvchilarning shaxsiy xislatlarini bilish va ta'lim-tarbiya berish jarayonida murabbiyning barkamolligini nazarda tutish zarurligini ko'rsatadi. Chunonchi, uning fikricha, murabbiy xohish-ixtiyor, iroda, qobiliyat, yaxshilik va yomonlik nima ekanligini yaxshi bilgan odam bo'lishi zarur. Chunki, inson ruhiga xos bo'lgan xohish-irodani, uning qobiliyatini aniqlamasdan turib, tarbiya ishiga kirishish kutilgan natijani bermaydi, deydi alloma. Forobiyning ta'lim-tarbiya yo'llari, usullari, vositalari haqidagi fikrlari ham g'oyat qimmatlidir. U inson go'zal fazilatlar ikki yo'l bilan: ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi, deb ta'kidlaydi. Forobiyning „Baxt-saodatga erishuv to'g'risida“ risolasida ta'lim-tarbiyani ikki yo'l bilan amalga oshirishni nazarda tutadi:

Birinchi – qanoatbaxsh so'zlar, ilhomlantiruvchi so'zlar yordamida odat hosil qilinadi, tajribalar vujudga keltiriladi va shaxsdagi g'ayrat-intilish harakatga aylantiriladi.

Ikkinchi usul – majbur etish yo'li. Bu usul gapga ko'nmaydigan qaysar shaxslarga nisbatan qo'llaniladi.

Demak Forobiy ta'lim-tarbiyasida rag'batlantirish, odatlantirish, majbur etish usullarini ko'rsatgan. Bu ikkala usul ham insonni har tomonlama kamolotga yetkazish maqsadida qo'llanilganidir. Shaxs kamolotida ta'lim va tarbiya birligini ta'minlashda ustoz va shogird munosabatlarida hal qiluvchi omildir. Bu masalaga ayniqsa, Sharqda juda katta e'tibor berilgan. Komil inson guruhiga oqil va dono, kamtar va olijanob, haqiqatparvar va fidoyi zotlarni kiritish mumkin. Bunday fazilatlar ega bo'lgan kishilar yuksak darajada mushohada yuritish qobiliyatiga ega bo'ladi. Ularda aql oddiy so'z va tushunchalarda emas, balki diyonat, adolat, iymon, ishq, dard kabi fazilatlar

mujassamlashgan bo‘ladi. Komil inson g‘oyasining mavjudligi va u bilan bog‘liq amaliyot jamiyat rivojlanish darajasini belgilaydigan mezon sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham Vatanimizda komil insonni tarbiyalash uchun ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy, tashkiliy vazifalar davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan. Hayot dunyosida shubha yo‘qki tarbiya singari ta‘sirli narsa yo‘q. Shu sababdan avvaldan olimlar tarbiya haqida o‘z fikrlarini yozib qoldirishgan. Yoshlarni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalash hamma davrda ham muhim ish sanalgan. Ajdodlarimizning bunday asarlari yoshlarni har xil yomon ishlardan asrab, kelajak uchun komil insonlarni tarbiyalash uchun zamin yaratadi. Tarbiyaga e‘tiborsizlikning oqibati esa nimalarga olib kelishi haqida A. Avloniy bugungi kunda jamiyatimizning yuzini qora qiluvchi pastkashlar, beboshlar tarbiyasiga e‘tibor berilmagan bolalardir degan edi. Yuqoridagilardan malum bo‘ladiki har vaqt tarbiya barcha ish ota- onaga balki, ustozlarga, jamiyatga, atrofdagi odamlarga ham bog‘liqligi aks etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Forobiyning „Fozil odamlar shahri“ kitobi .2012
2. Forobiyning „Baxt-saodatga erishuv to‘g‘risidagi“ risolasi .2012
3. Google oyina.uz